



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“JAHON ILM-FANI TARAQQIYOTIDA
TARJIMASHUNOSLIKNING AHAMIYATI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari
6-noyabr 2021-yil**

**Articles of international scientific conference on
“THE IMPORTANCE OF TRANSLATION STUDIES
IN THE PROGRESS OF WORLD SCIENCE”**

November 6, 2021

**Материалы международной научной конференции
«ЗНАЧЕНИЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ В РАЗВИТИИ
МИРОВОЙ НАУКИ»**

6 ноября 2021 г.

Toshkent – 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

**“JAHON ILM-FANI TARAQQIYOTIDA
TARJIMASHUNOSLIKNING AHAMIYATI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari
6-noyabr 2021-yil**

**Articles of international scientific conference on
“THE IMPORTANCE OF TRANSLATION STUDIES
IN THE PROGRESS OF WORLD SCIENCE”
November 6, 2021**

**Материалы международной научной конференции
«ЗНАЧЕНИЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ В РАЗВИТИИ
МИРОВОЙ НАУКИ»
6 ноября 2021 г.**

Toshkent – 2021

қаратишган. Олмон классикаси бошқа маданиятлар, айниқса ислом маданияти билан шуғулланган шоир ва ёзувчиларнинг асарлари орқали кўп бадиий ҳазиналарга эришди. Булар сирасига, Лессингнинг “Донишманд Натан” драмасидан ташқари Йоханн Вольфганг Гётеннинг “Ғарбу Шарқ девони” (1819), Шиллернинг “Турандот” номли эртаги (1802), Ҳайнрих Ҳайненинг “Ал-Мансур” (1823) каби асарлари шулар жумласидандир. Вольтернинг “Муҳаммад” драмаси эса тинч-тотувликка, толерантликка қарши асар эди.

Лессингнинг “Донишманд Натан” драмасини ўқир эканмиз, биз барчамиз инсонпарварлик ва толерантлик борсидаги барча тарихий ва бадиий ворисликни ўз зиммамизга олгандек бўламиз.

Адабиётлар

1. Bothe Bernd: Glauben und Erkennen - Studie zur Religionsphilosophische Lessing. Meisenheim am Glan. 1972.
2. Göbel Helmut: Bild und Sprache bei Lessing. München 1971.
3. Niewöhner, Friedrich: Der ferne Islam und das nahe Christentum – Gedanken nach Lessings Ringparabel, 2002.
4. Paul Rabbe: Das Lessinghaus in Wölfenbüttel. Ein Literaturmuseum für einen deutschen Schriftsteller des 18. Jahrhunderts. Wölfenbüttel 1978.
5. Sibylle Bauer: Gotthold Ephraim Lessing. Darmstadt. 1968.
6. Лессинг Г.Е. Донишманд Натан. Драматик поэма. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2005.
7. Schlegel F. Lyceum der schönen Künste. Ersten Bandes Zweiter Teil. Berlin 1797“.

“YOLG‘IZLIK MOTIVI” – ALBER KAMYU IJODIDA MUHIM MAVZU SIFATIDA

*Asadov Mahmadiyor Turayevich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbekiston, Toshkent
e-mail: diyorbek.asadov@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada “yolg‘izlik motivi” ning adabiyotda aks etishi, yolg‘izlik to‘g‘risida adabiyotshunoslar va yozuvchilarning fikrlari keltirilgan. Aynan Alber Kamyu asarlarida shaxs yolg‘izligi muammosi tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: yolg‘izlik, yakkalanish, begonalashuv, qahramon ruhiy holati,

Аннотация: В статье представлен «мотив одиночества» в литературе, взгляды литературоведов и писателей на одиночество. Работа Альбера Камю была посвящена проблеме одиночества.

Ключевые слова: одиночество, изоляция, отчуждение, настроение героя.

Annotation: The article describes the "motive of loneliness" in the literature, the views of literary critics and writers on loneliness. It was Albert Camus's work that addressed the problem of loneliness.

Keywords: loneliness, isolation, alienation, hero's mood.

Inson ruhiyati bilan bog‘liq psixologik tuyg‘u bo‘lmish “yolg‘izlik” tushunchasini bugun adabiyot bilan bog‘lashga ehtiyoj sezilmoqda. XX asrdan boshlab juda keng tarqalgan bu “adabiy g‘oya”ning ortida ko‘plab yozuvchi va faylasuflar yetishtirgan adabiy tarix o‘lchovi yotadi. Ular xatolar va tajribalardan kelib chiqib, yolg‘izlikni yoki shaxsiyatni o‘zlarining o‘tkir falsafiy mushohadalari orqali o‘z asarlariga aks ettirib bordilar.

O‘zini adabiy tarixning bu “daryo”siga tashlayotganda Kamyu “yolg‘izlik” motivi adabiyot orqali yorqin ifodasini namoyon eta olishi haqida o‘ylaydi. U yolg‘izlik va adabiyot o‘rtasidagi masofani aniq ko‘radi, his etadi va ishonadi. Ayniqsa, “yolg‘izlik” mavzusi Birinchi jahon urushini

boshidan kechirgan zamondoshlari uchun avvalgidan-da, muhimroq va ko'proq tanish bo'lib qolgan edi. Adabiyotshunos va yozuvchi Ulug'bek Hamdam yozadi: "XX asrga kelib insonning turmush tarzi sivilizatsiya natijasida misli ko'rilmagan darajada o'zgardi, murakkablashdi, odamlarning o'zaro muloqotiga putur yetdi – kamaydi, natijada ruhiy muloqot ehtiyoji insonning ichiga hibs etildi. Tashqaridan kutilgan baxt, najot ikki jahon urushi oqibatida sarobga aylandi va inson o'z ehtiyojlari bilan yolg'iz qoldi. Modernizmning ruhiy-psixologik asosi shu nuqtada boshlanadi" [Hamdamov, 2020:17]. Professor Muhammadjon Xolbekov o'zining "Modernizm" nomli maqolasida "Modernizm tarafdorlari o'zlari yashayotgan jamiyatning ibtidoiy betartibligi, bugungi kunning chalkash va mazmunsizligi, zamonaning o'ta tartibsizligi, kishilar ongidagi alg'ov-dalg'ov fikr-xayollar insonning yolg'izlik his tuyg'usi kuchayishiga, keskinlashuviga olib keldi deb hisobladilar" [Холбеков, 2015:128] deya fikr bildiradi. Kamyu esa: "Aslida eng to'g'ri so'zlarimiz va eng omadli chaqiriqlarimiz ham o'z mohiyatidan, ma'nosidan mosuvo emasligini bilish masalasi turibdi. Agar til so'zlamasa, demakki, soqov dunyoda insonning "oxirgi" yolg'izligi shu bo'ladi" [3:902] deb yozadi. Bu kabi muammo qo'yish yolg'izlik bilan kurashishda yoki o'z asarlarida yolg'iz qahramonlarni, ularning ruhiy kechinmalarini, kayfiyatini, ongosti qatlami tasvirlashda davom etadigan Kamyu ijodida, san'atida takrorlanib turuvchi muhim asos hisoblanadi.

Fransuz adabiyotshunosi Dominik Rabate o'zining "Yolg'izlikning kashf etilishi" ("L'invention du solitaire") asari muqaddimasida "**solitaire**" (*yolg'iz, yakka*) so'ziga ta'rif berarkan, quyidagini bayon etadi: "Adabiyot tarixida "**solitaire**" nima uchun va qanday qilib kashf etildi va uni kim kashf etdi? Birinchi savolga yolg'izlik bilan yozuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tarixiy davrlashtirish orqali javob berish kerak bo'lsa, ikkinchi savolga esa biroz boshqacharoq qilib, aksincha yolg'izlik ixtiro qilgan narsa bu modern adabiyotdir" [Rabaté, 2003: 8].

Rabate fransuz adabiyoti tarixidagi shaxs masalasiga chuqur yondashib, uni uch bosqichga ajratadi: Russo tomonidan shaxsning poklanishi; Bodler yuzaga keltirgan o'zgarishlar va hozirgi davr (XX asrdan buyon).

Russoning adabiyotga kirib kelishi yozuvchi va yolg'izlik o'rtasidagi munosabatlarning adabiyot tarixida burilish nuqta bo'ldi. Ma'rifat asrida yozuvchilar va faylasuflar "xushmuomalalik"ka katta ahamiyat qaratganlar va "yolg'izlik" hissi ularga o'ziga xos xaos sifatida ko'ringan. Russo yolg'izlikni shaxsiy tanlov yoki erkinlik deb biladi. Uning fikricha, hamma boshqalarni dahlsiz huquq sifatida va o'zgalarning yolg'izligini hurmat qilishi kerak, deb hisoblaydi. Shu paytga qadar, ko'plab yozuvchi va faylasuflar yolg'izlik haqida gapirishgan, ammo Russo g'oyasi adabiyot tarixida shaxsni tarbiyalash uchun zarurdir. Bu g'oya yozuvchilarga *cogito cartésien* – Dekart falsafasi (ya'ni, *fikrlayapman, demak men yashayapman*)ga qaytishga va odamlarning radikal (keskin) yolg'izligiga e'tibor berishida namoyon bo'ladi. Polyak yozuvchisi Yan Parandovskiy yolg'izlik ijodkor uchun eng qulay fursat ekanligini ta'kidlab, "hamma narsa jimjitlikka va diqqatni bir joyga jamlashga, rahmdil sehriga – yolg'izlikka bog'liq bo'lib turgan bir paytda, boshqa bir shaxsning malol keladigan darajada paydo bo'lishi"ni yomon holat deya hisoblaydi va "Yolg'izlik – mukammallik doyasidir" [Парандовский, 2016:89] deb yozadi. Shuningdek, Yan Parandovskiy jahon adabiyotining eng sara namunalari, "Ilohiy komediya"ning tersinalari, Goratsiyning she'riy misralarining ajoyib sayqal topishi, Gyote "Faust"ning ikkinchi qismidagi xayoliy sharpalarni yaratishda yolg'izlikdan qarzdor ekanligi, yolg'izlikning Flober, Dikkens ijodidagi o'rni, Avgustinning "Iqornoma"si yolg'izlik chog'ida yozilib, sayqallanib eng sara ko'ngil izhorlari bo'lganligini aytib, "tanholikda fikr qanot yozadi, unga yetuklik baxsh etadi, unda so'z o'zining gullagan davrini boshdan kechiradi" [Парандовский, 2016:89-90] deb yozadi. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, Russo yolg'izligi noaniq va chigaldir, chunki uning fikriga ko'ra, tushunmovchilik hamda boshqalarning yovuzligi sababli va ulardan farqli ravishda chetlashishi kerak. Russo o'zini boshqalardan ajratgan, yakkalagan vaziyat o'rtasida turganini, bu holatni barcha odamlar foydalanadigan huquq deb bilishiga o'zini ishonitirishi kerak. O'zining mashhur "Yolg'iz sayr qiluvchilarning orzulari" asarida, yolg'izlikning g'ayrioddiy jihatlari haqida yozadi: "Nihojat o'zimdanda boshqa birodari, qo'shnisi, do'sti, jamiyati bo'lmagan yerda yolg'izman" [Rousseau, 1959:995]. Bizningcha, bu

parcha ma'lum paradoksni ham keltirib chiqaradi, chunki bunday vaziyatda Russoning chaqirig'ini hech kim eshita olmasligi, qabul qila olmasligi mumkin. Ammo Russo o'zini "yolg'izlatish" istagiga moyil bo'lsa-da, u shu bilan birga boshqalarning unga bo'lgan munosabati va jamiyatga bo'lgan qiziqishida davom etmoqda. Bu beqaror muvozanat Russo "yolg'izligi"ning eng katta belgisidir. U ikki ma'noli bo'lganligi sababli, yolg'izlik va do'stona munosabat hozirda zid (qarama-qarshi) emas. Inson jamiyatning bir qismidir va bir vaqtning o'zida u yolg'iz qolish huquqiga ham ega; yolg'izlikning "bo'sh maydoni" (shaxsga nisbatan) jamiyat bilan birga bo'lishi mumkin.

XX asr va hozirgi davr adiblari qahramon ichki monologini rivojlantirdilar. Ular o'z asarlarida jamiyatdan ajralib qolgan, surib chiqarib tashlangan yolg'iz qahramonlar holatini tasvirlashni istadilar. Kamyu esa haqiqiy hayot bilan raqobatlasha oladigan dunyoni yaratishni maqsad qilgan. Ichki monolog shubhasiz boshqalar uchun mo'ljallangan, ammo undan chiqishning iloji yo'q. Natijada, so'zlar bir-biri bilan qorishib, aralashib, bir-birini takrorlaydi va solipsizm (**solipsizm** – (lot. *solus* – bir, yagona, va *ipse* – o'zim) voqelikda faqat inson va uning ongi mavjud, ob'ektiv dunyo va boshqa odamlar shu individning ongidagina mavjuddir, deb hisoblovchi falsafiy nazariya. Sub'ektiv idealistik ta'limotning hammasi solipsizmga moyil (Berkli, Fixte, Max va boshqalar). Solipsizm insonning har qanday faoliyatini, shu jumladan, fanni ham ma'nosiz qilib qo'yadi, chunki uning vakillari har qanday narsani mening ongimga shunday bo'lib tuyuladi, xolos, deb fikr yuritashadi [7])ga moyil bo'ladi.

Shu asnoda XX asr modern adabiyoti sub'ektiv monada (**Monada** – (yun. *monas* – yagona, bo'linmas) turli falsafiy ta'limotlarda borliqning tuzilish elementlarini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. Pifagor ta'limotida son, neoplatonizmga bo'lsa yagonalik degani. Monadalar haqidagi ta'limot (monadologiya)ning asoschisi G.Leybnis hisoblanadi. Uning fikricha, monada ruhiy tabiatga ega bo'lgan, butun dunyoni o'ziga qamrab, aks ettira oladigan bo'linmas va faol birlamchi substansiyadir.)dan xalos bo'lish mumkinmi; solipsizmga chek qo'yiladimi; inson yolg'izlikdan qutila oladimi va shu kabi bir qancha muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Bu xildagi savollar yozuvchi va faylasuflarni jamiyat uchun yangi imkoniyatlarini ko'rib chiqishga undaydi. Shuningdek, bu yerda paradoksal jamiyat haqida gap boradi. Xush, bunga erishish mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, adabiyot va yozuvchilar bunga qanday ishtirok etadi? Bu savol, asosan, Kamyuning san'at haqidagi g'oyasiga tegishli deyishimiz mumkin.

Xo'p, Kamyu ijodida yolg'izlik muammosi qanday kechadi. Yozuvchiga o'z san'atini to'la namoyon qilish uchun yolg'iz qolish mumkin bo'lgan vaqt va lahzalar kerak. U yolg'izlik bilan bog'liq munosabatlari badiiy aks ettiradi. Hamma joyda, yon-atrofida, ish stolida, daftarlarda yolg'izlik va yakkalik hissi haqida bir nechta eslatmalar yozishi mumkin. Boshqa ijodkorlar singari, Kamyu ham o'z ijodiy faoliyati uchun boshqalardan uzoqlashishga, o'zini yakkalashga ehtiyoj sezadi. Yolg'izlik Kamyu uchun san'ati, ijodining muhim sharti bo'lib qoladi va u o'z qahramonlari xarakterida buni aks ettira oladi. Ba'zan ular qamoqxonada o'tirishadi, ba'zida yopiq shaharda qolishadi, ba'zan esa o'zlarini begona yurtdagi begonalar orasida ajratib qo'yishadi. Agar sabab yoki tafsilot har bir belgi va har bir hikoyaga ko'ra farq qilsa-da, shubhasiz ularning turli vaziyatlari o'rtasida o'xshashlik mavjud. Boshqa tomondan, diqqatga sazovor jihati shundaki, Kamyu qahramonlari garchi yolg'izlikdan qutilib ketishga umid qilmasalar-da, ular boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishga ko'proq umid qilishadi. Shuning uchun ham ular qarama-qarshi fikrga ega: ular yolg'izlikni ushlab qolishni xohlashadi, ammo parallel ravishda boshqalar bilan rishtalar o'rnatishga intilishadi; ular boshqalardan uzoqlashishni, balki ularga yaqinroq bo'lishni istashadi.

Keyinchalik, Kamyu o'z asarlarida har xil yo'llar bilan murojaat qiladigan o'lim motiviga yolg'izlikning bir shakli, bir sababi, ya'ni boshqacha aytganda, keraksiz narsa deb qaraydi. Absurd va isyon turli xil o'lim bilan bog'liq, ya'ni, o'z joniga qasd qilish va qotillik. Bu o'rinda, Kamyuda yolg'izlik mavzusi tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi. Eng muhimi shundaki, Kamyu ushbu mavzuda yozish kerakligini his qiladi, ongli ravishda yoxud ongsiz ravishda bo'lsin u o'z san'atida yechilmas tugunni ko'radi. Agar biz yakkalanish va birlashish g'oyalarini hisobga olsak, yozuvchi bitta mavzuni boshqasidan ajratib, uni o'ziga xos xususiyatini oshirib, uni san'at asariga

aylantiradi. Darhaqiqat, Kamyu turli asarlarda yolg'izlikni o'z san'atining muhim mavzularidan biri sifatida tanlaydi.

Adabiyot

1. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – T.: Akademnashr, 2020. –B. 17.
2. Холбеков М. Модернизм. Jahon adabiyoti, 2015, № 5. – B. 128.
3. “Sur une philosophie de l’expérience”, I, - P. 902.
4. Dominique Rabaté. “Introduction”, in Modernités 19 : L’invention du solitaire, Presse Universitaires de Bordeaux, 2003, -p. 8.
5. Ян Парандовский. Сўз кимёси. Jahon adabiyoti, 2016, № 4. – B. 89.
6. Jean-Jacques Rousseau, Les Rêveries du promeneur solitaire, in Œuvres complètes, tome I, Gallimard, coll. “Bibliothèque de la Pléiade”, 1959, -p. 995.
7. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/s/solipsizm/>

HOZIRGI NEMIS VA O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLAR VA O'ZLASHMA NEOLOGIZMLAR

Gullola Boboqulova,

Qarshi davlat universiteti magistranti

Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'l'ishiga sabab bo'l'adi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi. O'zlashma so'zlarning asosida so'zlar yotadi ya'ni o'zlashma so'zlarning shakllanishi hech qanday o'zgarishlarsiz tilimizga o'zining shakli va ma'nosi bilan kirib kelishi kuzatiladi. Masalan bar, film, lider. O'zlashma so'zlarning aksariyati bu tarjima qilingan so'zlardir. Bunday so'zlarning ikki asosiy turlari mavjud bo'l'ib, ular quyidagilardir:

Chet tilidan kirib kelgan so'zning ma'nosi va shakli jihatdan o'zbek tiliga tog'ri kelishi va qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Masalan confort (uy xizmatlari) ingliz tilida comforts kabi ifodalanadi. Yoki o'zbek tilidagi autoritar so'zi bir necha yil oldin “rendere autorevole”, ya'ni ‘mustaqil ishlamoq’ ma'nosini anglatadi.

To'gridan-to'g'ri tarjima kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi sky-scraper; nemis tilidagi klassen kampf.

O'zlashma so'zlar tillar orasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim jarayondir. O'zlashma neologizmlarning ikki tillilik (bilinguizm) bilan munosabati, so'zlovchilar tomonidan holat va joyga qarab ikki tildan foydalanish davomida ko'rinadi. O'zlashma so'zlarning kelib chiqishi xalq tili yoki boshqa tillarning ta'sirida ham yaqqol ko'rinadi, bundan tahsqari ikki tilning bir-birini qadrlashida ham namoyon bo'l'adi. Bunday holat nemis va roman tillarida kuzatiladi. O'zlashma so'zlarni muhimlik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt va g'oya, fikr) bilan birga bo'l'sa, masalan patata gaytan so'zi bo'l'ib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan yoki caffè so'zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero ya'ni nol mavjud bo'l'magan) tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan.

O'zlashma so'zlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o'rin tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi: o'zlashma so'zlarning boyligi leader, flirt, baby-sitter, week-end so'zlarida ko'rinadi. Ingliz tilidagi so'zlar va birikmalar ba'zida ularning qisqaligi qulaylik tug'diradi: ya'ni jurnalistika tilida, sohasida uchrab turuvchi so'zlarni tushuntirib beradi, masalan boom, show italyan tilidagi ekvivalentlari quyidagilar show (teatrning turi, bir necha har xil bo'g'inlardan tashkil topgan italyan tilidagi ekvivalenti sit-in ma'lum bir joyda tomoshabinlarni yig'ish). O'zlashma so'zlar yozma va og'zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so'zi yozma til orqali kirib kelgan. Agar tunnel so'zi og'zaki tildan kirib kelganda edi tanel deb talaffuz qilinar edi xuddi ingliz tilidagidek. Budget aksincha badjet deb talaffuz

33. Буматова А.М. Бадий лирик матн таржимаси хусусиятлари.....	110
34. Aliboyeva N.A. The value of translation of children's literature.....	112
35. Eshonqulova M. Nemischa maqollarning o'zbekcha tarjimasi.....	114
36. Qurbonova R. Bolalar badiiy adabiyotida taqlid so'zlar tarjimasidagi muammolar: Oliver Tvist.....	115
37. Ruziyev Kh. Korpus tilshunosligining badiiy tarjima faoliyatidagi o'rni va ahamiyati	119
38. Xolmaxmedova N. Detektiv asarlar qirolichasi haqida.....	121
39. Xolmo'minov I. Folklor asarlarda realiyalar tarjimasi.....	123
40. Тухтасинова Н. Бадий матнлардаги агиотерминлар таржимасининг қиёсий таҳлили.....	125
41. Шералиева А.У. Передача черт литературного направления на примере художественного произведения Виктора Гюго «Собор Парижской Богоматери»	128
IV. O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT AHAMIYATI VA ADABIY KOMPARATIVISTIKA	
42. Samigova K., Ergashev D., Rahimova Ch., Abduraimov A. Rhetoric in the English and Uzbek languages.....	132
43. Alimova M.Kh. Effectiveness of language structure awareness in teaching English as a foreign language.....	133
44. Xoshimova D. Using types of translation with the innovative technologies during the lessons.....	137
45. Эркаев Э.Т. Таржимани инновацион ёндашув асосида ўргатишга доир.....	139
46. Uteshova Z. Linguocultural aspect of communicative competence in teaching speech etiquette.....	142
47. Махмудов А. Г.Э.Лессинг "Донишманд Натан" драмасида инсонпарварлик ғоялари талқини.....	144
48. Asadov M.T. "Yolg'izlik motivi" – Alber Kamyu ijodida muhim mavzu sifatida.....	147
49. Boboqulova G. Hozirgi nemis va o'zbek tilida o'zlashma so'zlar va o'zlashma neologizmlar.....	150
50. Eshmuratov U. Cultural conflict in the classroom: multicultural beliefs and values...	152
51. Eshonqulov A. Simultaneous interpreting as a cognitive process.....	155
52. Geldiyeva X. Ingliz tilidan kirib kelgan neologizmlarni tarjima qilish masalasi.....	157
53. Гиясова Д. Ҳозирги инглиз тилида агентивлик категориясининг функционал тадқиқи.....	160
54. Holikova L. The effect of applying the project-based learning approach in english classes on students' success.....	162
55. Ibodullayeva M. The importance of dreaming and its difference according to certain criteria: a view from pragmatics.....	164
56. Kattayeva F. Formation of a foreign language socio-cultural competence.....	167
57. Khodjaeva N. Some problems of translation in teaching speaking and giving instructions.....	169
58. Mansurova Kh. Translation of terminological lexicons in modern oratory.....	170
59. Murtazayev E. Erix Mariya Remark nasrida urush va inson fojiasi tasviri ("G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romani misolida)	173
60. Qudratov K.I. Pragmatik munosabatlarni ifodalanishida qo'llaniladigan atamalar....	175
61. Xolyorov X.M. Tarjimada kommunikativ funksiyali tasvir vositalarini tanlash.....	177
62. Қўлдошов Ў.Ў. Инглиз тилида конверсивларнинг тузилишига кўра турлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари.....	178
63. Мавлонова Н.А. Теоретические основы исследования межъязыковой фразеологической общности.....	181
64. Tursunova M. The place and role of visual media in the creation of speech.....	184
65. Нёматова Д. Фразеологизмларнинг функционал белгилар.....	186